

Boshqarmaning asosiy vazifa va funksiyalari

1. Hududiy boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalari uchun jangovar, maxsus hamda harbiy texnikalar, texnik vosita va jihozlar, boshqa

tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish, ularni zamonaviy va maxsus yong'in o'chirish hamda avariya-qutqaruv texnikalari bilan ta'minlash,

yong'in-qutqaruv bo'linmalarini yong'inni o'chirish aslaha-anjomlari va boshqa himoya vositalari bilan jihozlash, vazirlik shaxsiy tarkibini qutqaruv anjomlari, kiyim-kechak va boshqa mol-mulk bilan ta'minlash, faoliyat yo'nalishi bo'yicha xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va modernizasiya qilish bo'yicha shartnomalar, bitimlar tuzish;

vazirlik tarkibiy bo'linmalari xizmat faoliyati uchun zarur bo'lgan tovar-moddiy boyliklar sotib olinishini tashkillashtirish uchun ichki

va tashqi bozorni marketingli o'rganishni amalga oshirish;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun tender va tanlov savdolari o'tkazilishini tayyorlash hamda o'tkazishni tashkil etish, shu jumladan, ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat organlari tarkibida tashkil etilgan ixtisoslashgan xodimlarni shartnoma asosida jalb qilish;

Davlat xaridi hamda iqtisodiy va shartnomaviy faoliyatni takomillashtirib borish, shartnomaviy majburiyatlarni samarali amalga oshirilishini ta'minlash.

2. Marketing, xarid qilish va sotish boshqarmasi zimmasiga yuklangan vazifalardan kelib chiqib quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Vazirlik tarkibiy bo'linmalarining jangovar, maxsus hamda harbiy texnikalar, texnik vosita va jihozlar, boshqa tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish talabnomalari, texnik tavsiflarni tahlil qiladi, tahlillar asosida istiqboldagi va navbatdagi xarid rejalarini ishlab chiqadi;

jangovar, maxsus hamda harbiy texnikalar, texnik vosita

va jihozlar, boshqa tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish bo'yicha shartnomalar tuzadi;

vazirlik tarkibiy bo'linmalarini zamonaviy va maxsus yong'in o'chirish hamda avariya-qutqaruv texnikalari bilan ta'minlash, shuningdek,

yong'in-qutqaruv bo'linmalarini yong'inni o'chirish aslaha-anjomlari va boshqa himoya vositalari bilan jihozlash, vazirlik shaxsiy tarkibini qutqaruv anjomlari, kiyim-kechak va boshqa mol-mulk bilan ta'minlash maqsadida, tender va tanlov savdolarini o'tkazadi;

jangovar, maxsus hamda harbiy texnikalar, texnik vosita

va jihozlar, boshqa tovar-moddiy boyliklarni xarid qiladi, xarid qilingan tovar-moddiy boyliklarni qabul qilib olinishini tashkil qiladi;

tashqi bozorda xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotib olish bo'yicha konsolidasiyalashgan so'rovlarni shakllantiradi

va ularni belgilangan tartibda vazir o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan xarid rejalariga muvofiq, ijro etish uchun tegishli bo'linmalariga yuboradi;

vazirlik tizimi uchun eng sifatli va ustuvor hisoblangan turli xil potensial bozorlardan tanlash uchun analitik ishlarni olib boradi;

tender va tanlov hujjatlarini tayyorlashda marketing izlanishlar olib borish mobaynida xarid qilish internet saytlaridan (narx-navoni) o'rganish ishlarini olib boradi;

byudjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish maqsadida konsalting (narx-navoni o'rganish) xizmatlaridan foydalanadi

va zarur xulosalarni oladi;

tarkibiy bo'linmalar tomonidan ishlab chiqilgan texnik topshiriqlarni umumlashtiradi hamda tender va tanlov savdolarini o'tkazish uchun zarur hujjatlarni tayyorlaydi;

O'zbekiston Respublikasining Davlat xaridi, iqtisodiy

va shartnomaviy munosabatlar sohasidagi qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini tahlil qilib boradi;

shartnoma shartlarini bajarmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga nisbatan da'vo arizalarini tayyorlaydi va ko'rib chiqilishi uchun sudlarga kiritadi.

o'zi kiritgan da'vo arizalarini quvvatlaydi.